

UDK. 633.11 + 631.5

TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN DUKKAKLI EKINLAR HOSILDORLIGIGA KUZGI BUG'DOY ANG'IZINI HAYDASH USULLARINING TA'SIRI

Xurramova Gulsevar Xudaynazar qizi
Toshkent davlat agrar universiteti talabasi
gulsevarxurramova74@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqolada, takroriy ekin sifatida ekiladigan dukkakli ekinlardan no'xat va mosh hosildorligiga kuzgi bug'doy ang'izini haydash mudatlari va usullari haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация: *В этой статье обсуждаются сроки и методы перехода озимой пшеницы от зернобобовых, выращиваемых в качестве повторной культуры, к урожаю гороха и маша.*

Annotation: *This article discusses the timing and methods of driving winter wheat from pulses grown as a repeat crop to pea and mung yields.*

Kalit so'zlar: *Takroriy ekinlar, dukkakli ekinlar, g'alla ang'izi, mosh, no'xat yuqori hamda sifatli hosildorlik*

Kirish

Bugungi kunda respublika bo'yicha ertangi ekinlardan va g'alladan bo'shagan maydonlarga takroriy ekinlarni ekish ishlari ketmoqda. Mamlakatimizda ushbu chora tadbirlar asosan iyun, iyul, oylarida olib boriladi. Takroriy ekinlarni ekishning afzalligi, yil davomida xalqimiz dasturxoniga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uzluksiz yetkazib berishdan iborat.

Respublika bo'yicha g'alla o'rim- yig'imidan keying maydonlardan unumli foydalanish va nochor hamda ehtiyojmand oilalarni yanada maqsadida hosili olingan yerlar foydalanish uchun aholiga ajratib berilmoqda. Xususan 2022-yilning iyul oyi holatiga ko'ra respublika bo'yicha 921,5 ming gektar maydondagi g'alla yig'ishtirib olindi. Shuning uchun 853 ming gektari somondan tozalandi, shu maydonlarning 616,5 ming gektariga takroriy ekinlar joylashtirildi, shu maydonning

219,5 ming gektar dukkakli ekinlar ekildi.

Respublikamizda haydaladigan yerlar 3,2 million gektarni tashkil etib kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonlar yozda haydaladi, lekin yozgi haydovlarning kata qismi sifatsiz o'tkazilishi oqibatida tuproq xossalarning salbiy ta'sir etishi mumkin.

Ushbu sharoitda mavjud imkoniyatlardan keng foydalangan holda ilg'or texnologiyalarni qo'llab tuproqqa ishlov berishda samaradorlikni oshirish mumkin.

Qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlashda ularni yaxshi o'sib rivojlanishi hosil elementlarini ko'proq to'planishi, ildiz - tizimini yaxshi rivojlanishi, o'simliklarni tuproqdagi ozuqa moddalaridan va namlikdan yaxshi foydalanishda hamda fiziologik jarayonlarini ijobiy o'tishida tuproqning hajm massasi va g'ovakligining ahamiyati kata bo'lib, ular tuproqning agrofizik xususiyatlarini asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda respublikamizning dehqonchilik tizimida navbatlab ekishida tuproqqa ishlov berish har xil usullarini qo'llab, ekinlar parvarishlanganda tuproq unumdorligini

saqlanishi natijasida nafaqat asosiy balki takroriy ekinlardan ham yuqori hosil olish mumkinligi kata ahamiyatga ega.

Toshkent viloyati yer osti suvlari chuqur joylashgan, qadimdan sug'oriladigan, og'ir qumoqli tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doydan bo'shagan maydonlarni gektariga 350-450 m³ me'yorilariga sug'orib 25-30 sm chuqurlikda haydab, so'ng takroriy ekin sifatida dukkakli ekinlardan mosh va no'xat yetishtirish nazarda tutilgan eng muhimi dukkakli ekinlarning tuproq tarkibidagi azotni izlashtirib tuproqni organik moddalarga boyitib unumdorlik va hosildorligini o'zlashtiradi. Takroriy ekin sifatida ekilgan dukkakli ekinlardan aynan mosh takroriy ekinlarga nisbatan o'zining hosildorligi bilan ajralib turadi.

Bundan 5 yil oldin mosh ekin maydonlari 213 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, 2021 - yilda 232 - ming gektar maydonga ekilgan. Don hosildorligi o'rtacha 2,4 senterga ortib jami 360 tonna don yetishtirildi.

Yetishtirilgan 360 ming tonna mosh donining 200 ming tonnasi Avstraliya, Belgiya, Hindiston, Xitoy, Koreya, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston,

Qirg'iston, BAA va boshqa mamlakatlarga eksport qilish imkoniyati mavjud. Birgina 2021-yili hosildan 128 ming tonna mosh (2020- yilga nisbatan 29 ming tonna ko'p) o'rtacha 0,8 AQSH dollaridan, jami 102,5 mln dollarga dunyoning o'ndan ortiq mamlakatlariga eksport qilingan.

Mosh (tarkibida go'shtga nisbatan foydali ozuqa hisoblanadi. Mosh tarkibida oqsil ko'p bo'lib ayniqsa yosh bolalar uchun foydali, moshdagi oqsil sintez qilishda yordam beradi va qondagi gemogloblin hosil bo'lishda qatnashadi. Bundan tashqari hazm qilish sistemasi hisoblangan oshqozon ichak ish faoliyatini ham yaxshilaydi.

No'xat o'simligining ahamiyati, hozirgi kunda O'zbekistonda no'xatning 11 navi yetishtiriladi. No'xat don tarkibida 19-33% oqsil, 4-7% moy, 0,2-4 kul% ,

49-61% azotsiz ekstrativ moddalar 2-12% kletchatka vitaminlar hamda aminokislotalar mavjud. No'xat 3 xil usulda ekiladi.

1) Keng qatorlab

2) Yoppasiga qatorlab

3) Sepma usulda

Ko'plab ilmiy adabiyotlardan ma'lumki mikroorganizmlarning rivojlanish dinamikasi haydovlarga ekin turiga qarab o'zgarib boradi, shu maqsadda kuzgi bug'doy, ang'iz va ildizlarining ko'milganiga 30, 90, 180 va 250 kun o'tgandan so'ng variantlar bo'yicha tuproqni 0-15, 15-30 sm qatlamlaridan namunalar olinadi va undagi mikroorganizmlar ning guruhlarini bo'yicha mikrobiologik tahlil qilib ko'rilgan.

Xulosa

Toshkent viloyatining tipik bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi bug'doy o'zimizdan keyin har xil muddat va usullarda haydovlar o'tkazish natijasida yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun ularni kuzgi bug'doy o'zimizdan so'ng haydab, takroriy sifatida dukkakli ekin mosh, no'xat va boshqalarni ekib so'ng kuzda ma'lum chuqurlikda shudgorlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Respublikamiz aholisining tez suratlar bilan o'sib borishi aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabining ortib borishi soha vakillari oldiga bir qator dolzarb masalalarini qo'yimoqda. Jumladan: aholini ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan

ta'minlash ,chorvachilik ozuqa bazasini yaxshilash yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdukarimov –“Donli ekinlar seleksiyasi va urug‘chiligi”
2. Abdukarimov –“Qishloq xo‘jaligi ekinlari seleksiyasi va urug‘chiligi”
3. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari O‘zPiti-Toshkent 2007.